



УДК: 811.58:812.

Munisaxon XUSAYNOVA,
NamDTU “Xorijiy tillar” kafedrasida o‘qituvchisi
E-mail: xusaynovamunisa@gmail.com

PhD A.Badridinova taqrizi asosida

PAXTA SOHASIGA OID TERMINLARNING LUG‘ATLARDA AKS ETISHI

Annotsatsiya

Ushbu maqola lug‘atlar va ularning turlari haqida ma’lumotlar berish bilan birga izohli, tarjima va ensiklopedik lug‘atlar paxta sohasiga oid terminlarni qay darajada o‘ziga qamrab olganligini tahlil qiladi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillaridagi keltirilgan paxta sohasi doirasidagi terminlar qiyosiy o‘rganilib, mavjud kamchiliklar ko‘rsatilgan. Mazkur maqolada lug‘atlarda terminlar bir necha ma’nosi keltirish holatlari ham aniq misollar bilan dalillangan.

Kalit so‘zlar: Lug‘at, leksikografiya, termin, paxta, bo‘z, ma’no ko‘chish, ensiklopediya, lingvistik.

REFLECTION OF TERMS RELATED TO THE COTTON SECTOR IN DICTIONARIES

Annotation

This article provides information about dictionaries and their types, as well as analyzes the extent to which explanatory, translation and encyclopedic dictionaries cover terms related to the cotton industry. Also, the terms in the cotton industry in English and Uzbek are comparatively studied and existing shortcomings are indicated. This article also provides concrete examples of cases where terms have multiple meanings in dictionaries.

Key words: Dictionary, lexicography, term, cotton, gray, meaning transfer, encyclopedia, linguistics.

ОТРАЖЕНИЕ ТЕРМИНОВ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ХЛОПКОВОМУ СЕКТОРУ, В СЛОВАРЯХ

Аннотация

В статье представлена информация о словарях и их типах, а также анализируется степень охвата терминов, связанных с хлопковой промышленностью, толковыми, переводными и энциклопедическими словарями. Также проводится сопоставительный анализ терминов, связанных с хлопковой промышленностью, на английском и узбекском языках и указываются существующие недостатки. В статье также приводятся конкретные примеры случаев, когда термины имеют несколько значений в словарях.

Ключевые слова: Словарь, лексикография, термин, хлопок, серый, перенос значения, энциклопедия, лингвистика.

Kirish. Lug‘atlarga jonsiz tarjimon sifatida qaraladi, ular ba‘zan ikki til egalari uchun ko‘prik vazifasini bajarsa, ba‘zan bir tilda so‘zlashuvchilar uchun ma‘lum bir doira terminlarini tushunishlariga xizmat qiladi.

Lug‘atlarda keltirilgan leksik birliklarning turlari, ularning tasniflash usullariga ko‘ra Ensiklopedik (faqat tilga oid emas, jamiyatning barcha tarmoqlarini qamrab olgan) va lingvistik (filologik) turlari ajratiladi [1]. Ensiklopedik lug‘atlar so‘zlarni shunchaki ma‘nosini ifodalabgina qolmay, ular haqidagi faktlar, turli-tuman ma‘lumotlar, chizmalar, hodisalar, fotosuratlar, xaritalar ham keltiriladi. Lingvistik lug‘atlarda esa so‘zlar o‘zlarining lingvistik va nutq xususiyatlari hisoblangan grammatik, stilistik, etimologik, talaffuz, imlo, frazeologik birliklar, sinonimlar, antonimlar, morfemalar va kabi tilning turli hodisalarini ifodalaydi.

Adabiyotlar tahlili. Zamon rivojlanib borar ekan, terminologik lug‘atlarning qayta-qayta nashrlariga ehtiyoj tug‘ilaveradi. “... Har bir sohaga oid terminlarni iloji boricha qamrab oladigan, hodisaning mohiyatini to‘g‘ri, to‘liq va aniq aks ettiradigan terminlarni belgilaydigan izohli terminologik lug‘atlarni yaratish shu soha mutaxassislarining eng birinchi galdagi vazifalaridan. Xuddi shu maqsadda birinchi marta o‘zbek tili lingvistik terminlarining izohli lug‘ati tuzilib, “O‘qituvchi” nashriyoti tomonidan 1985-yilda chop etildi” [2]. Ushbu lug‘at 2002-yilda qayta nashrdan chiqarildi, muallif: “Lekin qator sabab va talablar shu lug‘atni qayta ishlab nashr etishni kun tartibiga qo‘ydi. Ularning eng asosiysi – o‘zbek

tiliga davlat maqomi berilishidir” [3] deb ta‘kidlaydi. Demak, terminologik lug‘atlar bevosita va bilvosita sabablar asosida qayta ishlab chiqish talabini qo‘yadi.

Izohli hamda ensiklopedik lug‘atlarning farqi, masalan, bo‘z so‘zi O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida shunday ta‘riflangan: BO‘Z, karbos – bo‘sh pishitilgan paxta ipidan sodda to‘q‘ilgan mato; qalin, pishiq va tana haroratini bir xilda saqlaydigan mahalliy ip gazlama. Qadimdan qo‘l dastgohlarida to‘qilgan. Yozma manbalarda boshqa matolar qatori bo‘z ham ko‘p tilga olingan: “qalin atlas kiysang unutm bo‘zing” (A.Yugnakiy). Bo‘zning “etaklik bo‘z”, “sedrak bo‘z”, “qali bo‘z” navlari farqlanadi; musulmon sharqida qizil bo‘z “alkirbos” nomi bilan mashhur. 17-asrda Turkistondan Moskvaga jo‘natilgan matolar orasida “byaz” nomi bilan tilga olingan. Qizil bo‘z esa “kumach” deb atalgan. 19-asr boshida buxorolik to‘qimachilar Astraxan, Vyatka, Qozon guberniyalarida qurgan ustaxonalarida bo‘z to‘qib sotilgan....

“Bo‘z” so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida: Bo‘z. [a - gazlama, ip gazlama, bo‘z] 1. Xom pishitilgan paxta ipidan qo‘l dastgohida to‘qilgan mato. Malla bo‘z. So‘z emgak bo‘lar, bo‘z – ko‘ylak (maqol). Arqog‘ini ko‘rib bo‘zini ol, Onasini ko‘rib qizini ol (maqol).

2. sft. Bo‘zdan tayyorlangan, tikilgan. Nigor oyim bo‘z to‘nni tekshirib ko‘rdi (A.Qodiriy. Mehrobdan chayon).

Tahlil va natijalar. Bir leksik birlikning ikki xil lug‘atda qanday tasvirlanganiga qarab shuni aytishimiz mumkinki, ensiklopedik lug‘atlar keng qamrovli, predmetning barcha

xususiyatlarini inobatga olib tasvirlaydi. Lingvistik lug'atlar esa so'zning faqat lingvistik jihatlarinigina yoritadi. Masalan, o'zbek tilining izohli lug'atidan olingan parchada ko'rsatilgan qisqartmalar "sft. – (sifat)" so'zning grammatik belgisini bildirib turgan bo'lsa, s.t. (so'zlashuv tiliga oid) shartli qisqartmasi esa so'zning uslubiy belgisini anglatadi. Lingvistik lug'atlarda keltirilgan misollar ham badiiy yoki ilmiy adabiyotlardan, ma'lum gazetalardan olinishiga ham guvoh bo'lishimiz mumkin.

Ensiklopedik lug'atlar ingliz tilining eng qadimiy umumiy ensiklopediyasi hisoblanib, ilk bor 1768-yilda Shotlandiya, Edinburgda nashr qilingan, 1899-yilda so'ngi nashrdan chiqqan The Encyclopaedia Britannica, The Encyclopaedia Americana, Collier's Encyclopedi kabi ko'plab lug'atlar mavjud.

Mavjud lug'atlarni ularda berilgan tillar soniga qarab, yakka, ikki tilli va ko'p tilli lug'atlarga ajratiladi. Bir tilli lug'atlarga Longman Dictionary of Contemporary English, Oxford English Dictionary, O'zbek tilining izohli lug'ati va boshqa bir qator lug'atlarni keltirishimiz mumkin.

Ikki tilli va ko'p tilli lug'atlar odatda tarjima lug'atlari deb ham yuritiladi. Professor V.K.Muller tomonidan yaratilgan Russian-English Dictionary lug'ati birinchi inglizcha-ruscha katta tarjima lug'ati hisoblangan va keng foydalanilgan. Shu bilan birga, mustaqillikdan keyin ko'plab o'zbekcha-inglizcha, inglizcha-o'zbekcha lug'atlar ham yaratildi. Bularga misol qilib, F.Rahmatov tomonidan yaratilgan English-Uzbek dictionary, Sh.Azimovning English-Uzbek Uzbek-English Dictionary Sh.Butayev tomonidan tuzilgan English-Uzbek dictionary: 80.000 words and expressions, N.Abdurahmonovning English-Uzbek dictionary of phrasal verbs lug'atlari nashr qilingan.

Bularga qo'shimcha ravishda lug'atlarning yana uch turi mavjud bo'lib, ular umumiy lug'atlar (tildagi barcha mavjud so'zlarni o'z ichiga oladi), mavzu lug'atlar (ma'lum bir mavzu doirasidagi so'zlarni o'z ichiga oladi) va maxsus maqsadli lug'atlar (ma'lum maqsadda, masalan, dialekt, jarangli so'zlar yoki muayyan tematik maydonga tegishli leksik birliklar bilan cheklanadi).

Maqsadli lug'atlar turiga kiruvchi terminologik lug'atlar aniq bir fan yoki sanoat sohasiga doir atamalar, ularning sharhlari, misollar bilan yoritilgan lug'atlardir. Tadqiqotimiz uchun tanlangan tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta) sohasi terminologiyasi doirasida ingliz, rus va o'zbek tillarida ko'plab lug'atlar yaratilgan[4]. Bulardan, Anglo-russkiy tekstilniy slovar. Xlopkopryadeniye i tkachestvo, English for Technologists and designers, English-Russian Textile Dictionary, Illustrated Glossary of Textile Terms, Dictionary of Textile Terms and Definitions, Made Fiber and Textile Dictionary (Celanese Corporation Man), The Oxford-Duden Pictorial English Dictionary, Paxta tozalash sanoatidagi atamalar va tushunchalarning o'zbekcha-ruscha izohli lug'ati, English-Russian Cotton Dictionary kabi yuzlab tarjima hamda izohli lug'atlarni misol qilib bera olamiz.

Yuqorida keltirilgan izohli va tarjima lug'atlarida tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta) sohasiga oid terminlar izohlari va tarjimalari, keltirilgan misollarni va faktlarni uchratamiz. Bularga misol qilib, o'zbek tili izohli lug'atini oladigan bo'lsak, "paxta" terminining o'zi 719 marta qo'llanilgan bo'lib, u bazan shu soha termini tarkibida, ba'zan boshqa so'zlarga keltirilgan misollar tarkibida qo'llanilgan. Paxta va unga dastlabki ishlov berishga doir esa 150dan ortiq terminlar keltirilgan, ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

LINT. [ingl. linter – paxta momig'i] Tola ajratib olinganda, paxtaning chigitda qoladigan kalta tuki va undan hosil qilinadigan xomashyoning bir turi.

KO'RAK. Hali yetilmagan paytida sovuq urgan, ochilmay qolgan ko'sak.

SHPINDEL. [nem. Spindel – urchuq, duk, yig] tex. 1. Metan kesish stanogining aylanuvchi vali; unga asbob (freza, parma, jilvirtosh va b.) yoki ishlov beradigan buyum mahkamlanadi.

2. Paxta terish mashinasining konus yoki silindr shaklidagi ish organi.

3. Ip yigiruvchi mashinaning dugi; yig

URCHUQ. 1. Tolalardan qo'lda yoki mashinada ip yigirish, pishitish uchun ishlatiladigan moslama yoki qurilma; duk.

2. To'qimachilik sanoatida: ip yigiruv mashinalarining ipni pishitib o'raydigan qismi; duk, yig.

CHIG'IRIQ. Paxtani chigitidan ajratish uchun ishlatiladigan qadimgi qo'l asbobi. Chig'iriqda paxta tozalamoq.

O'zbek tilining izohli lug'ati umumiy lug'at turiga mansub bo'lib, boshqa sohalarni bilan bir qatorda tadqiqotimiz doirasidagi terminlarga duch kelamiz. Shu bilan birga, mazkur lug'atda so'zlarning snekdoha, metafora, metonimiya kabi ma'no ko'chishlarni ko'ramiz. Albatta, bunday ma'no ko'chish terminologiya tarjimasida muammolar keltirsa-da, terminologiyada ko'plab uchrab turadi[5]. Masalan, "paxta" termini o'zbek tilining izohli lug'atida ushbu leksik birlikning bir nechta ma'nolari mavjud.

Paxta 1. G'o'za o'simligining chigit va toladan iborat oppoq yumshoq hosili. Eski paxta bo'z bo'lmas, asli dushman do'st bo'lmas. Maqol.

2. chigitdan ajratilgan shu mahsulot; momiq paxta. Vaziraning egnida shaftoli guliga monand, ko'ksi ochiq, yelkasiga paxta qo'yib tikilgan shoyi ko'yak. S.Ahmad. Ufq. ...

3. s.t. ayn. G'o'za. Uzoq-uzoqdan hali kun ko'tarilmaganiga qaramay, qo'llariga ketmon ushlagan yigitlar paxta sug'orib yuribdilar. A.Qodiriy. obid ketmon.

4. sft. Guli, tasviri (ochilgan) paxtaga o'xshash. Paxta gulli choynakni oldiga tortdi. T.Ashurov. Oq ot [6].

Bunday metonimik ma'no ko'chishi soha mutaxassislarini chalg'itishi, terminlarni tarjima qilish jarayonida qiyinchilik tug'dirishi bilan terminologiyaning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu izohli lug'atda paxta terminining quyidagi snekdoha yo'li bilan ma'no ko'chishi ham ko'rsatib o'tilgan:

Astar – yopinchiq, parda; f. – ichdan tikilgan mato. Kiyim yoki ko'rpa, ko'rpacha singari narsalarni ichki qavati, ichki tomoniga tikilgan material. Paxta - G'o'za o'simligining chigit va toladan iborat oppoq yumshoq hosili...

Astar-paxtasini ag'darmoq. 1. Tit – pit qilmoq, tilka – pora qilmoq, dabdalasini chiqarmoq. 2. Qattiq koyimoq, tanqid qilmoq. 3. Butun kirdikorlarini ochib tashlamoq [7].

1981 yilda Z.M.Magrufov tomonidan tuzib, nashr etilgan 2 jildidan iborat "O'zbek tilining izohli lug'ati" [8, B.1349] 60000ta so'z va so'z birikmalarini o'z ichiga olgan bo'lsa, 2006 yilda A.Madvaliyev tahriri ostida qayta nashrdan chiqarilgan 5 jildli yangi tahrirdagi o'zbek tilining izohli lug'ati 80000dan ortiq so'z va so'z birikmalarni qamrab olgan. 2023 yilda A.Madvaliyev, D.Xudayberganovlar tahriri ostida lotin alifbosida yangi nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" [9] esa 80000dan ortiq so'z va so'z birikmalarini o'zida jamlagan. Bu uchta izohli lug'atlarda mavjud paxta tabiiy tolasi va unga dastlabki ishlov berish texnologiyasi sohasiga oid terminlarni solishtirma tahlil qilar ekanmiz, Z.M.Magrufov tahriri ostidagi lug'atdagi terminlar yangi tahrirdagi izohli lug'atlarda aynan takrorlanganligiga guvoh bo'lamiz. Bir tomondan, buning sababi albatta 2006 va 2023 yillarda yaratilgan lug'atlar birinchisi asosida yaratilganligi bilan

izohlansa, ikkinchi tomondan, eski tahrirdagi lug'at Rossiya mustamlakasi davrida yaratilganligi inobatga olinmaganligi, ya'ni rus tilida berilgan ayrim terminlar o'zbek tilidagi ekvivalentlari bilan almashtirilmaganligi ham ko'rinadi. Bunda misol qilib, paxta sohasi doirasidagi podbor, sort, svodka kabi terminlari izohi bilan berilgan. Ushbu so'z rus tilidan bevosita kirib kelgan bo'lib, so'zni o'zbek tilida o'z ekvivalentlariga egadir.

Xulosa. Ikkinchi izohli lug'at tahlili jarayonida duch kelgan yana bir jihat, eski tahrirdagi izohli lig'atda mavjud mingchi (mavsumda bir necha ming kilogram paxta teradigan

ilg'or terimchi), yuz sentnerchi (har gektar yerdan yuz sentner xosil yetishtiruvchi paxtakor) termin va birikmali terminlar yangi tahrirdagi izohli lig'atda keltirilmagan. Buning sababi bugungi kunda umumadabiy tilda mazkur terminlarning muomalada qo'llanilmayotganligi degan xulosaga kelamiz. Tahlillarimiz natijasida ohirgi tahrirdagi o'zbek tilining izohli lug'ati shiddatli rivojlanayotgan texnika asrini boshdan o'tkazib, soha rivojiga guvoh bo'lgan bo'lsada, mazkur sohaga kirib kelgan yangi terminlar ushbu izohli lug'atdan joy olmaganligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2016. – B.122.
2. Ҳожаев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985, – 115б.
3. Hojayev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B.158.
4. Mukhitdinova, N. O. (2025, March). Linguistic features of paradigmatic and syntagmatic relations. In International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London) (Vol. 13, pp. 4-7).
5. Nazirova, O. M. (2018). The importance of student motivation in teaching foreign languages. *Theoretical & Applied Science*, (10), 307-311.
6. Бегматов Э. Мадвалиев А. ва бошқ. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б.241.
7. Бегматов Э. Мадвалиев А. ва бошқ. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б.111.
8. Магруфов З.М. Magrufov Z.M. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М.: “Русский язык”, 1981. – 1349б.
9. Madvaliyev A., Xudayberganova D. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur Gulom, 2023. – 5243b.